

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra viloyatda 4300 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulushi 765 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,7 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, 743 tasi (17,3 %) kiyim ishlab chiqarishga, 614 tasi (14,3 %) boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 433 tasi (10,1 %) to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-yanvar holatiga ko'ra



II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 40 087,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,1 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Namangan viloyati	40 087,4	109,1
Namangan shahar	11 975,8	107,8
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq tumani	980,3	109,4
Kosonsoy tumani	1 831,5	107,6
Namangan tumani	1 936,0	108,4
Norin tumani	677,6	110,4
Pop tumani	989,5	115,1
To'raqo'rg'on tumani	6 632,3	107,3
Uychi tumani	2 058,8	107,3
Uchqo'rg'on tumani	1 030,6	105,2
Chortoq tumani	1 063,0	118,3
Chust tumani	3 251,2	114,2
Yangiqo'rg'on tumani	579,1	112,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2025- yil yanvar-dekabr oylarida 12 680,9 ming so'm (2024- yil yanvar-dekabr oylarida 10 313,0 ming so'm), o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,0 % ni ko'rsatmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-dekabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 33 211,5 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (82,8 %)ni tashkil etgan holda elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 6 214,9 mlrd so'm (15,5 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 466,7 mlrd so'm (1,2 %) hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 194,4 mlrd so'm (0,5 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-dekabr oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 37 393,9 tonna paxta chigiti (2024-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 35,6 % ga kamaygan), 1140,0 tonna paxta tiviti(lint) (36,9 % ga kamaygan), 45 237,0 tonna ishlov berilgan suyuq sut mahsulotlari (13,3 % ga ko'paygan), 30 309,5 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (5,2 % ga ko'paygan) hamda 7 639,4 tonna tozalanmagan paxta yog'i (57,4 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr*	2024-yil yanvar-dekabr*	2025-yil yanvar-dekabr
Paxta chigiti, tonna	49334,1	50 232,8	37 393,9
Paxta tiviti (lint), tonna	1842,6	1 807,4	1 140,0
Ishlov berilgan suyuq sut, tonna	40343,0	39 927,0	45 237,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	44727,3	28 822,7	30 309,5
Tozalanmagan paxta yog'i, tonna	5821,0	17 922,3	7 639,4
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	9628,0	9 244,0	2 886,9
Paxta iplari, tonna	45431,6	50 489,0	45641,6
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar, tonna	1780,3	4 459,2	6 773,3

**2023-2024-yillarning yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori ulushga ega faoliyat turi to'qimachilik, kiyim ishlab chiqarish, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi – 38,4 % (2025-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,9 %) ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 29,8 % (2025-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %)ni, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi esa – 4,3 % (2025-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,5 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,5 % ni (2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 1,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 7,5 % (8,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 17,1 % (16,0 %), quyi texnologiyali 73,9 % (74,5 %)ni tashkil etgan.

Namangan viloyatida yirik korxonalar tomonidan



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 99,3 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 55,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr*	2024-yil yanvar-dekabr*	2025-yil yanvar-dekabr
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	7 019,7	6 553,4	6 505,6
Issiqlik energiyasi-ming. Gkal.	53,3	144,6	80,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlarida 34,9 % ga ko'payish, oqava suvlarning shlami 31,3 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari 12,2 % ga ko'payganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar- dekabr*	2024-yil yanvar- dekabr*	2025-yil yanvar- dekabr
Tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlari- mlrd. so'm	122,4	145,9	196,8
Oqava suvlarning shlami - mlrd.so'm	8,6	13,1	17,2
Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari- mlrd so'm	37,4	73,3	82,2

*2023-2024-yillarning yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 22 154,4 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 55,3 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 54,1 % ni tashkil etgan.



*2024-yil yanvar-dekabr oylari uchun kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish ko'rsatkichlari qayta aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

V. Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 86 ta loyiha bo'yicha 3 018,9 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 90,6 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.

	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil
Amaldagi loyihalar soni, birlikda	65	85	84	120	86
Korxonalar soni, birlikda	49	67	66	80	64
Ishlab chiqarish hajmi	668,9	1 514,0	2 107,7	3 022,9	3 018,9
Yaratilgan yangi ish o'rne	1114	1 246	758	2 034	923

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 923 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. O'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda, yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 54,6 % ga kamayganligi kuzatildi.

VI. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Namangan viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
N. Abduraxmonova
69 211-72-00 (5010)

Manzil:
160133, Namangan sh,
N.Namangoniy ko'chasi, 14-uy.
